

VIRTUAL MULOQOTNING FONETIK XUSUSIYATLARI

Isroilova Barchinoy Abdug‘appor qizi

Andijon davlat universteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada virtual olam hamda unda kechayotgan lisoniy jarayonlarda unli va undosh fonemalarni qo‘llash bilan bog‘liq holatlar, emotsional, psixologik jihatlarning namoyon bo‘lishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: virtual muloqot, fonetik uslubiy vositalar, emotsional-ekspressiv funktsiya, unli va undosh tovushlar bilan bog‘liq fonetik xususiyatlar.

Аннотация: в статье говорится о ситуациях, связанных с употреблением гласных и согласных фонем в виртуальном мире и происходящими в нем языковыми процессами, а также проявлением эмоционального и психологического аспектов.

Annotation: the article talks about the situations related to the use of vowel and consonant phonemes in the virtual world and the linguistic processes taking place in it, as well as the manifestation of emotional and psychological aspects.

Zamonaviy global axborot asrida axborot va Internet texnologiyalari hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Axborotni saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish kabi tubdan yangi va noyob aloqa tizimlari paydo bo‘ldi. Hozirgi vaqtda Internet aloqasi butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlarni birlashtiradigan kuchli va progressiv aloqa vositasi sifatida hech qanday jismoniy chegaralarsiz umumiy imkoniyat tarzida ijtimoiy tarmoqlarning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi [1: 240-247].

Bugungi kunda tilshunoslik masalalari sarhadlari kengayib, chuqurlashib bormoqdaki, bu holat asosan, an‘naviy tilshunoslikda til birliklarining ijtimoiy jihati bir oz e‘tibordan chetda qolgani sababli ro‘y bermoqda. Til masalalarining ijtimoiy jihati uning pragmatik tomoni bilan bog‘liq. Tilshunoslikda pragmatik masalalarning o‘rganilishidagi muammolar fonetik birliklar yuzasidan olib boriladigan tadqiqotlarga ham mundarijani taqdim etadi [2:94].

Kommunikatsiya jarayonida har bir gap, so‘z va hatto tovushning tanlanishi ham bevosita inson ruhiyati bilan bog‘liq bo‘ladi. G.Yaxshiyeva fonetik uslubiy vositalarni quyidagicha ajratadi: [3:7]

a) og‘zaki nutq talaffuzining uslubiy xususiyatlari va imkoniyatlari, ya‘ni tom ma‘nodagi fonetik stilistika;

b) og‘zaki nutq talaffuzining uslubiy xususiyatlarini yozma nutqda grafik (imloviy) vositalar bilan aks ettirish, ya‘ni tom ma‘nodagi grafik stilistika.

Muallif ta'kidlagan aynan shu ikkinchi jihat virtual muloqot jarayonida fonetik birliklarni qo'llash bilan bog'liq holatlarni o'rganish masalasining dolzarbligini ko'rsatadi. O'zbek tiliga xos fonemalar nutqiy jarayonda o'z imkoniyatlarini namoyon etadi. Xususan, o'rganish obyektimiz sanalgan virtual muloqot jarayoni ham o'ziga xos lisoniy qonuniyatlarning nutqda qay tarzda reallashishini ko'rsatuvchi maydon sanaladi. Ayni jarayonda fonemalarning virtual nutqda qo'llanishi ham individual va qaysidir ma'noda umumiy uslubiy me'yorlarning shakllanishidan darak beradi.

Ma'lumki, uslubiyat – til birliklarining uslubiy imkoniyat va xususiyatlari, funksional-ekspressiv bo'yog'i, shuningdek, nutqda til vositalarining maqsadga muvofiq tarzda tanlash va qo'llash haqidagi ta'limot [4:118]. Biz mazkur faslda aynan so'zlashuv uslubi obyekti sanalgan virtual muloqotga xos fonetik-uslubiy xususiyatlarni yoritishga harakat qildik. Bu jarayonda ayni ikki jihatga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz.

1) tovushlarni uslubiy jihatdan ataylab almashtirish, ikkilantirish, tushirib qoldirish, badiiy ifodaning ta'sirchanligini oshirishga qaratilganligi bo'lsa;

2) virtual muloqotda kommunikantlarning ifoda etayotgan axborotidan ko'zda tutilgan maqsadga hamohamg tarzda nutq tovushlarini turli holatda ishlatishi bilan bog'liq individual jihatlar nazarda tutiladi.

Mazkur jihatlarni tahlil qilar ekanmiz, unda virtual muloqotga xos fonetik xususiyatlar sifatida oddiy so'zlashuv uslubiga xos jihatlarning ustuvorligi, badiiy bo'yoqdorlikning esa past darajada ekanligini ko'ramiz. Quyida telegram ijtimoiy tarmog'idan olingan turli virtual muloqotda fonetik sath birliklari sanalgan nutq tovushlarining virtual nutqiy jarayonda qay tarzda qo'llanilishi bilan bog'liq o'ziga xos jihatlarni tahlil qilish va umumlashtirishga harakat qildik.

Unli tovushlar bilan bog'liq fonetik xususiyatlar. So'zdagi ma'no tovushlar vositasida voqe bo'ladi, tinglovchi ham ma'noni tovushlar vositasida qabul qiladi. Shuning uchun so'zdagi biror tovushning talaffuzdagi o'zgarishi, ya'ni cho'zilishi, almashtirilishi, tushirib qoldirilishi, albatta, ma'noga ta'sir qiladi. Bunday hollarda so'zning denotativ ma'nosi emas, konnotativ ma'nosi o'zgaradi¹.

Fonostilistik jihatdan nutq tovushlarining talaffuzidagi emotsional-ekspressivlik va akustik (eshitib) ta'sirlanish tomonlarini o'rganish muhimdir. Tovushlarga biror ma'no yuklash jiddiy ilmiy asosga ega bo'lmasa-da, bunday shatrlilik zahirida emotsional-ekspressiv funksiya turadi [5:20]. Bu holatda quyidagi ma'nolar yuzaga chiqadi:

- shodlanish, xursandlik, kayfiyatning yaxshiligini;
- hayratlanish;

¹ Kabuljonova G.K. Nazariy va amaliy stilistika.(O'quv qo'llanma). – Andijon,.2022.-B.20(um.sah.135)

- taajjub;
- iztirob, o‘kinish;
- g‘azablanish, kuchli to‘lqinlanish;
- ma’yuslik;
- ikkilanish va.h.k.

Ayni shu ma’nomalar virtual muloqotda ham o‘ziga xos tarzda ifodalanganligini kuzatishimiz mumkin. *Masalan:*

BA’ZIDA MASHINANI

MAGNITAFONINI

BALAND QILVOLIB

(stikerlar.....)CHIROOOOYLI

JOYLARGA (joy stikerlar)

BIIIIIR O’ZING KETVORGING

KELADI-YUUUUUUUU,

SHUUUU... BIRDAAAAN...

MASHINANG

YO’QLIGI ESINGGA

TUSHIB G’ALATIIII

BO’PQOLARKANSAN ODAM (Dugona ayollar tel.kan.)

Keltirilgan virtual nutq parchasida inson xohish-istaklari bilan bog‘liq ruhiy holatning yuzaga chiqishida **o**, **i**, **u**, **a** harflarining bir necha bor cho‘zilishi, inson ruhiyatidagi nozik hissiyotlarni ifodalashga xizmat qilganligini ko‘rish mumkin. Ya’ni, *chirooooyli* joylarga birikmasida **o** harfini cho‘zish orqali *go’zallik*, ko‘tarinki kayfiyat, *biiiiir* o‘zing so‘zida **i** harfini cho‘zish orqali *juda ham xoli bo‘lishlik istagi*, ruhiy xotirjamlik ketvorging *keladiyuuuuuuu*, *shuuuu... birdaaaan...* so‘zlaridagi **u**, **a** harflarini cho‘zib yozish orqali so‘zlovchi xohish-istaklarining amalga oshishining imkoni yo‘qligi, *g’alatiiii* bo‘pqolarkansan so‘zidagi **i** harfini cho‘zish ma’yuslikni *kuchaytirish* kabi ma’nomalarni ifodalab kelgan.

Fonetik birliklarning uslubiy imkoniyatlaridan asarning badiiyligini ta’minlashda keng foydalanish mumkin. Bunda, ayniqsa, ohang muhim rol o‘ynaydi. Ohangning vazifalaridan biri so‘zlovchining voqelikka bo‘lgan munosabatini ko‘rsatish, shu jumladan, ma’noni kuchaytirish, bo‘rttirishdir. Bu haqida tilshunos olim A.Abdullayevning tadqiqotida fikr bildirib o‘tilgan [6:8]. Nutqda fonetik usul bilan yuzaga chiqadigan ustama ma’noli so‘zlarni kuzatish mumkin. Bunday fonetik vositalar nutqning ohangi va mazmun talabidan kelib chiqib, tabiiy ravishda talaffuz qilinadi:

-Ishlap kesam sen yeeep yotasan xotin.

-Ajab bopti (telegram nutqidan)

Ushbu gapda unlini cho‘zish orqali harakatning davomiyligi ifodalangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan so‘zlovchi (er)ning suhbatdoshi (xotini)ga nisbatan salbiy munosabati, ya’ni *pichingi*, *kinoyasi* ifodalanganini ham ko‘rish mumkin. Shuningdek, ana shu subyektiv munosabat orqali “*Sen yeyishdan boshqa hech narsaga yaramaysan*” degan tagma’no birgina *e* harfini cho‘zish orqali implitsit tarzda ifodalanmoqda. So‘zlovchining unlini cho‘zishi asnosida voqelikka nisbatan norozilik (subyektiv baho, salbiy) munosabatini ifodalashga xizmat qilgan.

Undoshlar bilan bog‘liq fonetik xususiyatlar. Undosh tovushlarning cho‘zilishi ularning qo‘sh undosh holiga kelishi shaklida yuzaga chiqadi. Bunda ham his-tuyg‘uning ortiqligi, kuchaytirish, ta’kidlash, so‘roq, taajjub ma’nolari ifodalanadi. Muloqot jarayonida undosh tovushlarni ikkilantirib aytish, takror qo‘llash, tushirib qoldirish, orttirish kabilar fonostilistik ahamiyatga ega bo‘lib, turli xil qo‘shimcha ma’nolar hosil qiladi. Jumladan, nutqda ularni me’yorida talaffuz qilmaslik ma’no buzilishiga olib keladi. Ammo boshqa bir holatda esa, ya’ni bir undoshni atayin ikkilantirib talaffuz qilish va yozish uslubiy ahamiyat kasb etadi. Masalan,

Oilangizni quvonchini ko‘rish axir baxt emasmi?

Shoshlamiz tezro**qqqq** (*Tug‘ilgan kun uchun videolar telegram kanalidan*)

Virtual muloqotdan olingan yuqoridagi gapda ham **q** fonemasining qavatlanishi orqali so‘zlovchining emotsiyasi va tinglovchiga nisbatan psixologik bosimni sezish qiyin emas. Tilda undosh fonemalarni qo‘llashga xos uslubiy qonuniyatlar mavjud bo‘lsa, virtual muloqotda ham undoshlarni qo‘llashda o‘ziga xos uslub va individual me’yorlarning yuzga kelganligini ko‘rish mumkin.

Masalan, undoshni qavatlash:

To**zza** izmuritli Baku

Brilyand uzugimiz

750 proba **utta** guzal

Yarashimli 18 razmer

Kelasiz takasiz ketas

Ko‘zlariga gap yo‘q 4.5gr

4.600 ming biram arzon sotamiz rostan (*Navruz mall TILLA tel.kan.*)

Yuqorida keltirilgan misolda ham **tozza**, **o‘tta** so‘zlarida qavatlangan **z** va **t** undoshlari (og‘zaki nutqda ikkita undoshdek talaffuz qilinadi va yozuvda ham ikkita yozilgan) ma’noni kuchaytirishga qaratilgan. Shu birgina tovushlarda sotuvchi xaridorni jalb etish, narsaga qiziqishini oshirishni ham nazarda tutgan. Chunki zamonaviy savdo reklamasida bunday yo‘l tutilmasa, albatta, bozor kasodga uchraydi. Shuni ham aytib o‘tish joizki, bugungi davr talabi juda shitob, unga faqat va faqat intilish va doimiy harakat orqali samaralarga, natijalarga erishish mumkin. Bugungi kunda virtual muloqot maydonida onlayn savdoning ham keng yo‘lga

qo'yilganligi va bu jarayondagi *reklama, psixolingvistik omillarning rolini o'rganish* alohida bir muammo sanaladi. Uning zahirida esa til me'yorlarining (uslubiy, adabiy, noadabiy qatlamlar, dialektal, og'zaki so'zlashuv) qay darajada vositachilik vazifasini o'tayotganligi kabi murakkab masala yotibdi.

Adabiyotlar:

1.Иванова О.В. Особенности иноязычной коммуникации в социальных сетях. //Языки.Культуры. Этносы. Формирование языковой картины мира: филологический и методический аспекты. 2015. Т1. № 1 С. 240-247

2.Yulbarsov O. Fonetika masalalariga doir. // Nutq madaiyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman mater. – Andijon, 2017. – B. 94

3.Яхшиева Г.Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. – Т., 1996. – Б.7

4.Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 118.

5.Kabuljonova G.K. Nazariy va amaliy stilistika.(O'quv qo'llanma).Andijon,.2022.-B.20(um.sah.135)

6.Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши.- Тошкент. 1987. – Б.8.